

Akramova S.U.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistri

O‘ZBEK VA YUNON MIFOLOGIYASIDA SEMURG‘ VA FENIKS ILOHIY QUSHLAR OBRAZI

Annotatsiya: Mifologiyaning mohiyati, uning kelib chiqishi va o‘rganilishi butun jahon adabiyotining eng qiziqarli izlanishi bo‘lib kelgan. Ushbu maqola o‘zbek va yunon mifologiyasidagi ilohiy dono qush obrazining o‘xshash va farqli jihatlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mifologiya, mif, ertak, afsona, asotir, obraz, qahramon, “Avesto”.

Аннотация: Сущность мифологии, ее происхождение и изучение стали интереснейшими исследованиями всей мировой литературы. В данной статье рассматриваются сходства и различия образа божественно-мудрой птицы в узбекской и греческой мифологии.

Ключевые слова: мифология, миф, сказка, легенда, образ, герой, «Авесто».

Annotation: The essence of mythology, its origin and study has been the most interesting research of the entire world literature. This article examines the similarities and differences of the image of the divinely wise bird in Uzbek and Greek mythology.

Key words: mythology, myth, fairy tale, legend, image, hero, “Avesta”.

Xalq og‘zaki ijodiga mansub mifologiya janri – azaldan insoniyat tarixida muhim o‘rin tutgan. Mif so‘zi yunoncha “mithos” so‘zidan olingan bo‘lib, afsona, rivoyat, asotir kabi ma‘nolarni bildiradi. Qadimgi odamlarning borliq haqidagi tasavvuri va munosabatini anglashimiz uchun, aynan, mifologiya janri katta hissa qo‘shadi. Ibtidoiy odamlar o‘z fikrlash doirasida koinot, odam, tabiat va uning jonzoatlari, tabiat hodisalarining mohiyatini anglashga harakat qilishgan va ushbu voqelikni miflar orqali izohlashga urinishgan. Mifologiya atamasi esa ma‘lum bir diniy an‘analarga mansub afsonalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu miflar sujet jihatdan real hayotga yaqinlashishi mumkin, ammo undagi asosiy hodisalar yoki personajlar sehrli va tabiat qonunlariga bo‘ysunmas qobiliyatlarga ega bo‘ladi.

Erix Fromm “Turli odamlar turli xil miflarni yaratadilar, xuddi shunday turli odamlar turli xil orzularga ega. Ammo bu farqlarga qaramay, barcha miflar va tushlar umumiy narsaga ega: ularning barchasi bir xil tilda “yozilgan” - timsollar tilida”, deb ta‘kidlaydi.[1; 183]

Mifologiya janri qadimgi odamlarning hayotini o‘rganishga va yaqindan nazar solishga yordam beradi. Har bir mif o‘z davrida yashagan insonlar qalbining tub-tubida yashiringan istaklarini namoyon etadi. Ammo millatiga, diniga va tarixiga ko‘ra miflar farqlanishi mumkin. Mifologiya, asosan, diniy qarashlarni targ‘ib qiladi. Miflar – xudo, ilohlar va boshqa g‘ayritabiiy jonzoatlar haqidagi rivoyatlardir. Ayrim xalqlarning miflari xilma-xillikka boy bo‘ladi, shuning uchun ularni ertakdan ajratish mushkul bo‘ladi. Mif va ertak o‘rtasidagi aniq farq shundaki, mif doim tushuntirish (etiologik) elementga ega bo‘lib, uning ostida tarixiy qiymatga ega haqiqat yotadi.

Dunyo xalqlari ichida qadimgi Yunon miflari eng mashhur miflar sanaladi. Ular juda ko‘p va sujet jihatdan xilma-xil ham bo‘lgan. Bu miflar qadimda ham, hozirgi kunlarda ham ko‘plab shoir-u yozuvchilar, dramaturg va rassomlarni buyuk asarlar yaratish uchun ilhomlantirgan. Qadimgi odamning tafakkuri hozirgi odamnikidan sezilarli darajada pastroq bo‘lganligi sababli, hatto, olov ham ilohiy belgi sifatida qabul qilingan.

Shu kungacha o‘zbek mifologiyasini hazrat Xizr, Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkushod kabi pir-avliyolar; dev, jodugar, pari, alvasti, farishta, alamon yoki chilton kabi sehrli kuchga ega g‘ayritabiiy personajlar boyitib kelgan. Yunon mifologiyasi esa Gerakl, Odissey, Yason va Tesey kabi sevimli afsonaviy qahramonlari; Zevs, Poseydon, Apollon, Artemida, Afina, Afrodita va boshqa ulug‘ ilohlar; grifon, vasilisk, ajdar, kentavr, minotavrlar kabi sehrli mavjudotlarni o‘z ichiga oladi. Sehrli mavjudotlar ichida har ikki xalqning o‘xshash mavjudotlari yoki avliyolarini uchratishimiz mumkin. Masalan, ajdar obrazi har ikki xalq talqinida bahaybat gavda va qanotlarga ega bo‘lib, olov purkaydigan, ayrim hollarda 2 va undan ortiq boshli mavjudot sifatida gavdalanadi.

O‘zbek mifologiyasining eng mashhur mifologik obrazlaridan biri Semurg‘dir. Semurg‘ haqidagi ilk ma‘lumotlar Eron mifologiyasida uchraydi. Shuningdek, bu ulug‘ qush qadimgi zardushtiylik dinining simvolik qushi hisoblanadi. Semurg‘ – mangu hayot, bu dunyoning u dunyodan ozodigi, ilohiylik, yovuzlik yoki o‘lim ustidan g‘alabasi timsoli. Bu qush o‘zbek folklorida ham keng tarqalgan mifoornitonimlardan biri bo‘lib, homiy kuch sifatida, sehrli qudratga ega ulkan qush qiyofasida gavdalaniriladi.

Semurg‘ qush obrazi abadiy hayotni ifoda etadi va hayot daraxti kabi mifologik qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Semurg‘ misolida, ibtidoiy odamlarning insonlarning butunlay o‘lmasligiga, aksincha, inson ruhi bir tanadan ikkinchi tanaga ko‘chib yurishiga va turli o‘zgarishlarga ishonganligini ifodalaydi. Bunday tashqari, Semurg‘ haqida ertak va afsonalar bu qushning betakror donolik sohibi ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘plab ertaklarda insonlar ham, qushlar ham undan dono maslahatlar yoki ilohiy yordam olish uchun murojaat qilishadi. Qahramonlik ertaklarida esa, uning yordami ertak qahramoni bilan ko‘z ochib yumguncha uzoq masofalarni bosib o‘tadi, yer ostidagi qahramonni yer yuziga chiqarib qo‘yadi.

Semurg‘ “Kenja Botir” va “Semurg‘” ertaklarida muhim yetakchi rollarda gavdalangan. Har ikki ertakda ertak qahramonini yer ostidan yer yuziga olib chiqadi va, albatta, qahramonning Semurg‘uchun qilgan yaxshiligi evaziga. O‘zbek mifologiyasida barcha ilohiy personajlar donolik xislatiga egadir. Kenja botir Semurg‘ bolalarining hayotini saqlab qolganligi uchun, ilohiy qush uning niyatini amalga oshirishga yordam berdi.

“...Bir vaqt Semurg‘ uhib kelib bolalariga: “Bu erdan odam isi kelyapti. Aytlaring, kim bor”, - debdi. Bolalari: “E ona, agar bizni hurmat qilsang, senga aytaturg‘on bir gapimiz bor”, - debdi. Semurg‘: Xo‘sh, nima gap?” - debdi. Shunda bolalari: “Bizni og‘ir falokatdan qutqargan va har kuni bittamizni jondan ajratib turgan ajdarni o‘ldirgan yigit sizdan yordam istaydi”, - debdi. Semurg‘ bu gapdan so‘ng Kenja botirni oldiga chaqirib, undan tilagini so‘raydi”.[2; 447,448]

Qolaversa, yo‘l oxirida go‘shni tugagan Kenja botirning, hech o‘ylamay o‘z go‘shidan berganligi, Semurg‘ esa uni qabul qilmaganligi, qushning saxovatpesha ekanligidan dalolat beradi.

“...Shunday qilib, Semurg‘ Kenja botirni er yuziga olib chiqib qo‘yadi va yo‘lda go‘shni tamom bo‘lganligi uchun Kenja botir o‘z sonidan kesib bergan shirin go‘shni Semurg‘ qaytarib beradi. “Meni deb o‘zingni shuncha qiynadingmi?” - deya Semurg‘ tilining ostidagi go‘shni olib Kenjaning soniga yopishtiradi va so‘ngra uni ustidan yalab qo‘yadi. Shu bilan Kenjaning sonida hech qanday yara va zahm izi qolmaydi”.[2; 448]

O‘zbek mifologiyasida barcha ilohiy personajlar donolik xislatiga egadir. Kenja botir Semurg‘ bolalarining hayotini saqlab qolganligi uchun, ilohiy qush uning niyatini amalga oshirishga yordam berdi. Qolaversa, yo‘l oxirida go‘шти tugagan Kenja botirning, hech o‘ylamay o‘z go‘sh tidan berganligi, Semurg‘ esa uni qabul qilmaganligi, qushning saxovatpesha ekanligidan dalolat beradi. Ertakda kuzatiladigan asosiy ezgu kuch - Semurg‘ timsolida gavdalan tiriladi. Kenja botirning o‘z sonidan kesib bergan go‘sh tini yana joyiga qo‘yib, izsiz davolagani esa Semurg‘ ning shifobaxsh qobiliyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Biroq o‘zbek mifologiyasida Semurg‘ nega yer ostida yashaydi? Uning qudratiga, nafaqat yer osti, balki yer ustida ham deyarli hech kim bas kela olmagan bo‘lar edi. Buning javobini Semurg‘ haqidagi boshqa afsonalardan olishimiz mumkin. Qadimgi “Avesto” davrida Semurg‘ o‘lganlarning ruhini keyingi hayotga eltuvchi yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini bajaradi. Bu dono va qudratli qushning asosiy vazifasi o‘lgan ruhlarni u dunyo va bu dunyo o‘rtasida hamrohlik qilgan hamda ruhlar o‘z manziliga yetib olishiga yordam bergan.

Feniks Yer yuzida ming yillardan beri yashovchi, burgutni eslatuvchi, tillo-qizil rang yoki och qizil rangli patlarga ega mifologik qush. Bu ilohiy mifologik qush o‘limni oldindan bila olishi, o‘z-o‘zini yondirib kul qilishi va kuldanda yana tug‘ilishi bilan mashhur. Ushbu qush, asosan, hayotga chanqoqlikni, iroda kuchi va qalb sofligini tasvirlovchi simbolik obraz hisoblanadi. Metaforik talqinga ko‘ra, Feniks – abadiy yangilanish va umrboqiylik ramzi.

Feniks personajining asl kelib chiqishi qadimgi Misr tarixiga borib taqaladi. Shunday bo‘lsa-da, uni boshqa xalqlarning mifologiyasida ham uchratish mumkin. Yunon tarixida esa bu qush Efiopiya bilan bog‘liq. Yunon mifologiyasiga ko‘ra, Feniks qayta tug‘ilish, davolash va boshqa ko‘rinishga aylanish kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan.

“Uzoq vaqtlar oldin, qadimgi Yunonistonda Alkidemon ismli buyuk podshoh hukmronlik qilgan. Bu podshoh o‘z xalqi haqida qayg‘uradigan dono va adolatli hukmdor edi. Biroq, kunlarning birida katta falokat paydo bo‘ldi - saltanat ko‘plab odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan dahshatli vaboga duchor bo‘ldi. Podshoh bu dahshatli kasallikni to‘xtatish yo‘lini topish uchun Orakulga murojaat qildi. Orakul shohga sehrli Feniks yashaydigan uzoq mamlakatlarga borishni maslahat berdi. Bu qadimiy jonzot shifobaxsh kuchi bilan mashhur edi. Alkidemon, xavf va qiyinchiliklarga qaramay, o‘z sayohatiga yo‘l oldi. Tog‘lar va o‘rmonlardan o‘tib, nihoyat Feniks yashaydigan joyga yetib keldi. Feniksning olovli ko‘zlarida ulug‘vorlik chaqnab, havoga ko‘tarilib, podshohning tashrifi sababini so‘radi. Podshoh o‘z saltanatini qamrab olgan vabo haqida gapirib, Feniksdan yordam so‘radi. Feniks qirolning qalbidagi samimiyat va olijanoblikni sezib, yordam berishga rozi bo‘ldi. Feniks yerga tushib, olovli qanotlarini ko‘tardi va uning nuri butun mamlakatni yoritib yubordi. Mo‘jiza kabi vabo chekinishni boshladi. Feniks podshohga dumidan tuk berib: “Bu pat ne‘mat va shifo ramzi bo‘ladi. Doimo yodda tut, kuch - mehr va birlikda”. Podshoh Feniksning marhamati bilan shohligiga qaytdi. Pat shifo berishga va tasalli berishga qodir bo‘lgan muqaddas artefaktga aylandi. Shunday qilib, Feniks yordami bilan shohlik tiklandi va uning xalqi yana quvonch va baxt topdi”.[4]

Ushbu ertakda Feniks ham Semurg‘ singari homiy kuch sifatida gavdalangan. Qirolning chin dildan xalqini azoblardan xalos etmoqchi ekanligini ko‘rib, dono qush o‘z yordamini ayamadi. Shuning uchun, bu yerda faqatgina Feniksning himmatini emas, qirolning o‘z xalqi haqida xuddi o‘z farzandidek qayg‘urayotganini nazardan qoldirmaslik zarur. Uning xalqi haqida jon kuydirishini sezgan Feniks ham yordam qo‘lini cho‘zadi. Shoh va uning xalqi o‘rtasida mehr va birlik bo‘lsa, mamlakatda rivojlanish yuz beradi, xalqning turmush tarzi ham yaxshi tomonga o‘zgarib boraveradi. Feniksning “kuch - mehr va birlikda” degan gapi, aynan mehr va birlik orqali qirol xalqiga yaqin bo‘lishi va ularni har qanday dushman yoki bedavo kasalliklarni ham birgalikda yengib o‘ta olishini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Semurg‘ ham, Feniks ham mifologiya tarixida umrboqiylik va qayta jonlanish kabi qudratli kuchga ega ilohiy qushlar sifatida muhrlangan. Bundan tashqari, ular ilohiy kuchi va donoligi bilan ham dovrug‘ taratgan. Ushbu qushlar kichik yoshdagi bolalarni ham, katta yoshdagi insonlarni ham yaxshilik va ezgulik sari boshlaydi. Yaxshilikka yaxshilik ila javob qaytarishni, samimiy va ochiqko‘ngil insonlar doim baxtli xotimaga erishishini eslatib o‘tadi.

Bunday mifologik obrazlar nafaqat o‘zbek va yunon mifologiyasida, balki yer yuzidagi barcha xalqlarning og‘zaki ijodida uchraydi. Boshqa xalqlarda Semurg‘ va Feniks kabi qushlar qadimgi Misrda Benu, Islom dinida Anka, hinduiylik dinida Garuda, Xitoyda Fenxuan, Yaponiyada Xo-o, slavyanlarda esa Olov qush nomi bilan mashhur. Mifologiyadagi bunday ilohiy qushlarning asosiy vazifasi – ularning yordamiga muhtoj jonzotlarga yordam berish va donoligi bilan tog‘ri yo‘l ko‘rsatish bo‘lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фромм Э. Душа человека: Перевод. — М.: Республика, 1992. — 430 с. — (мыслители XX века).
2. Mamatqul Jo‘rayev, Darmonoy O‘rayeva. O‘zbek mifologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2019. – 558 bet.
3. СИМУРГ: ЭВОЛЮЦИЯ ОБРАЗА СОБАКИ И ПТИЦЫ В ЗОРОАСТРИЙСКОМ ПОСМЕРТНОМ РИТУАЛЕ. Андрущенко И.В. 2023.